

# O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

## Andijon viloyat statistika boshqarmasi

### 2018 yil yanvar-may oyida viloyatda bajarilgan

#### QURILISH ISHLARI

##### **KO'RSATKICHLAR:**

*Qurilish-montaj ishlari  
hajmi – 848,5 mlrd.so'm*

*Yirik qurilish-pudrat  
tashkilotlari ulushi – 2,8 foiz*


*Kichik korxonalar va  
mikrofirmalar ulushi – 63,4  
foiz*

*Norasmiy sektorning ulushi  
– 33,8 foiz*


2018 yilning yanvar-may oyi bo'yicha viloyatda 848,5 mlrd. so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,6 foizni tashkil etdi hamda 2017 yilning yanvar-may oyiga nisbatan barqaror holda qoldi.


Xususan, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 23,4 mlrd.so'mni yoki o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 94,3 foizni tashkil etdi.

Mazkur davrda yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmining kamayishi kuzatildi, ya'ni ular tomonidan 23,4 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati avvalgi yilga nisbatan 94,3 foizni tashkil etdi. Shu jumladan, Andijon shahrida qurilish-pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan ishlar hajmi 18,0 mlrd.so'm, o'sish sur'ati 194,7 foizni tashkil etdi. Jalaququq va Ulug'nor tumanidagi yirik korxonalar tomonidan jami 5,4 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarildi va o'sish sur'ati 47,1 foizga teng bo'ldi.




Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi jami qurilish ishlarining 538,6 foizini tashkil etdi va o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,7 foizga teng bo'ldi. Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun turar joylar qurish, avtomobil yo'llarini yangi qurilishi, rekonstruksiya va ta'mirlash, ijtimoiy soha obyektlari, namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishida o'z faoliyatlarini amalga oshirmoqdalar.





Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 832,9 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 98,2 foizini tashkil qildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,5 foiz punktga ko'paydi.



Joriy davrda norasmiy sektorda jami 286,6 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarildi va o'sish sur'ati 106,3 foizni tashkil qildi. Qurilish ishlari hajmining baholash natijalariga ko'ra norasmiy sektordagi qurilish ishlari hajmidan 178,0 mlrd.so'm yakka tartibdagi turar-joylar qurilishi 88,3 mlrd.so'm aholi tomonidan qurilgan noturar bino-inshootlar va 20,2 mlrd.so'm aholi tomonidan amalga oshirilgan yakka tartibdagi ta'mirlash ishlari hissasiga to'g'ri keldi.

**O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika  
qo'mitasi**

**Andijon viloyat statistika boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi**

*Aloqa telefoni: (0374) 228-29-37*